hatdan yorqin misol bo‘lib, unda sug‘orish dehqonchiligi va “voha-cho‘l” landshafti ertak obrazlarining (xususan, suv iloni, suv parisi kabi mifologemalar) evolutsiyasiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatgan.

Amaliy nuqtayi nazardan, ushbu tipdagi qiyosiy-tipologik tahlil natijalari nafaqat nazariy folkloreshunoslik uchun, balki xalq ertaklarini zamonaviy ilmiy metama’lumotlar asosida tizimlashtirishga qaratilgan raqamli tadqiqot loyihalari (masalan, o‘zbek xalq ertaklarining ATU xalqaro indeksiga muvofiq milliy reyestrini yaratish) uchun metodologik baza bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Uther H.-J. The Types of International Folktales: A Classification and Bibliography, Based on the System of Antti Aarne and Stith Thompson. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 2004, 618 p.

(2). Zipes J. The Irresistible Fairy Tale: The Cultural and Social History of a Genre. Princeton: Princeton University Press, 2012, 256 p.

(3). Propp V.Y. Morphology of the Folktale. Austin, University of Texas Press, 1968, 158 p.

(4). Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent, “Fan”, 1964, 244-bet.

(5). Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari. O‘zbek folklorining epik janrlari. Toshkent, “Fan”, 1981, 62–69-betlar.

(6). Sarimsoqov B. O‘zbek folklorining janrlar sostavi. O‘zbek folklori ocherklari. 3 tomda. Toshkent, “Fan”, 1988, 1-t, 63–84-betlar.

(7). Jo‘rayev M. O‘zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari. “O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 1996, 5-son, 32–38-betlar.

(8). Bozorov X.X. O‘zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlili. “FarDU ilmiy axborotnomasi”, Farg‘ona, 2026, 4-son.

(9). Achilova N.N. (2021). Ajdarho obrazining genezisi va evolyusiyasi talqinlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), p. 360–368.

(10). Kabilova G.B. Mifologik qush obrazining turkiy xalqlar folklorida o‘rganilishi. “Ilm ham jamiyat”, Nukus, 2025, 3-son, 98–100-betlar.

(11). Abdullayev F. Xorazm ertaklari. Toshkent, “Fan”, 1961, 210-bet.

(12). Dundes A. The Meaning of Folklore: The Analytical Essays of Alan Dundes. Logan, Utah State University Press, 1997, 360 p.

(13). Rustamov I. Ertaklarning janr xususiyatlari (o‘zbek va ingliz tillari misolida). I.Rustamov, Sh.Rustamova. /Toshkent davlat Transport universiteti ilmiy elektron jurnali. Toshkent, 2021, 4-son, 12–19-betlar.

(14). O‘zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. 2-tom. Toshkent, “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1964.

Normurodova Nargiza Alijon qizi (Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi; E-mail: nargizanormurodova1982@gmail.com;ORCID:0009-0005-8399-3101)

ISAJON SULTONNING “BILGA XOQON” ROMANI SUJETI GENEZISI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yozuvchi Isajon Sulton qalamiga mansub bo‘lgan “Bilga xoqon” romani sujeti genezisi, Bilga xoqon bitigi yuzasidan tadqiqot olib boriladi. “Bilga xoqon” romani sujeti uchun asos bo‘lib xizmat qilgan qadimgi bitiktoshlar va roman matni qiyosiy tahlil etiladi. Shuningdek, ularning bugungi o‘zbek adabiyoti uchun tarixiy, adabiy manba ekanligi misollar orqali ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Isajon Sulton, Bilga xoqon shaxsi, roman sujeti, Bilga xoqon obrazi, sujet genezisi, bitiktoshlar, qiyosiy tahlil, badiiy manba, tarixiy haqiqat, tarixiy obraz.*

СЮЖЕТ-ГЕНЕЗ РОМАНА ИСАДЖОНА СУЛТАНА «БИЛГА ХАКАН»

Аннотация. *В данной статье исследуется происхождение сюжета романа «Бильга-хаган» писателя Исаджона Султана, а также надписи Бильга-хагана. Проводится сравнительный анализ древних надписей, послуживших основой для сюжета романа «Бильга-хаган», и текста самого романа. На примерах также показано, что они являются историко-литературным источником для современной узбекской литературы.*

Ключевые слова. *Исаджон Султан, личность Бильга-хагана, сюжет романа, образ Бильга-хагана, происхождение сюжета, надписи, сравнительный анализ, художественный источник, историческая правда, исторический образ.*

THE GENESIS OF THE PLOT IN ISAJON SULTON’S NOVEL “BILGA KHAGAN”

Annotation. *This article studies the genesis of the plot of the novel "Bilga Khagan" by the writer Isajon Sultan, the inscription of Bilga Khagan. The ancient inscriptions that served as the basis for the plot of the novel "Bilga Khagan" and the text of the novel are analyzed comparatively. It is also shown through examples that they are a historical and literary source for today’s Uzbek literature.*

Keywords: *Isajon Sultan, the personality of Bilga Khagan, the plot of the novel, the image of Bilga Khagan, the genesis of the plot, inscriptions, comparative analysis, artistic source, historical truth, historical image.*

Kirish. O‘zbek adabiyotida tariximizning turli davrlarini aks ettirgan asarlar ko‘p, ammo qadimgi davrlar haqida esa sanoqlidir. Yozuvchi Isajon Sulton boshqa ijodkorlarga o‘xshamagan holda, tariximizning eng qadimgi davrlariga murojaat etib, bir qancha asarlar yozdi. Bular “Bilga xoqon” hamda “Botir Tangriqut” romanlaridir. “Bilga xoqon” romani bevosita Bilga xoqon bitigi asosida yaratilgan asardir. Roman sujeti uchun Bilga xoqon bitigi poydevor bo‘lgan. Isajon Sulton mahorati bois tariximizning eng qadimgi davrlari, undagi ijtimoiy hayot, ma’naviy olam bilan tanishishga musharraf bo‘lamiz. Miloddan avvalgi VI–VII asrlarda yashagan ajdodlarimizning vatan, el-yurt oldidagi mas’uliyatini, avlodlar uchun qoldirib ketgan ana shu jonsiz toshlarda yozilgan so‘zlar orqali anglagandek bo‘lamiz, qadimiy tariximizni his etamiz, albatta.

“Bilga xoqon turkiy xoqonlardan biridir. U yigirma yillik hukmronlik davrida turk elini bosqinchilar xurujidan ozod qildi. Bilga xoqon Eltarish xoqonning katta o‘g‘li Kul tiginning og‘asidir. U 734-yilda, ellik yoshida o‘z yaqinlaridan biri tomonidan zaharlab o‘ldirilgan” [1;300-b.]. “Yodgorlik esa 735-yilda tiklangan.Yodnoma Kul tigin mangutoshidan 1 km janubiy-g‘arbda o‘zining tiklangan joyida, ag‘anab uch bo‘lakka bo‘lingan ko‘rinishda topilgan. Hozir shunga yaqin bir yerda yopiq joyda saqlanmoqda. Yodgorlikni Bilga xoqon o‘lgandan so‘ng, uning o‘g‘li Yo‘llug‘ tigin o‘rnatgan. Matn muallifi ham uning o‘zidir” [5;94-b.]

Adabiyotlar sharhi. O‘zbek adabiyotida qadimgi bitiktoshlarni o‘rganish yuzasidan juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Bilga xoqon, Tunyuquq, Kul tigin kabi qadimiy bitiktoshlar qadimshunos olimlarimiz A.Qayumov, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, A.Abdurahmonov kabilar tomonidan o‘rganilgan. O‘zbek yozuvchilari orasida birinchilardan bo‘lib qadimgi turkiy adabiyotga murojaat etib, bular asosida asar yozgan yozuvchi Isajon Sultondir. Yozuvchining “Bilga xoqon” asari yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, N.Rahmonovning “Mangu bitiktoshlar ilhomi” maqolasida “Bilga xoqon” romanining o‘zbek adabiyoti uchun yangilik ekani, unda qadim tariximizga oid qimmatli ma’lumotlar badiiy talqin etilgani haqida fikrlarini bayon etadi. Bundan tashqari, I.Saymuratova, S.Babayevalarning PhD dissertatsiya ishlarida ham Isajon Sultonning ‘Bilga xoqon” asari turli aspektlarda o‘rganilgan.

Tadqiqot metadologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, poetik tahlil, germenevtik va intertekstual tahlil usullaridan foydalanildi. “Bilga xoqon” romani sujeti genezisini talqin qilshda, avvalo, Bilga xoqon bitigining asliga murojaat etilib, undagi asl tarixiy voqealar va asardagi badiiy talqin qiyoslandi.

Tahlil va natijalar. Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani o‘zbek adabiyotida shu mavzuda yaratilgan ilk tarixiy-biografik asar hisoblanadi. “Bilga xoqon” romani muqaddima va uch bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda “Kichik yish” (yish so‘zi “kichik vodiy”, “qo‘nish yeri” degan ma’noni bildiradi), “So‘zchilar”, “O‘tukan Yish”, “Bilga xoqonning o‘tmishi”, “Yig‘in”, “Ko‘gman tog‘i”, “Inigach ko‘l yoqasida savash”, “Bayram” kabi, ikkinchi bo‘limda esa 4 ta asosiy: “Tabg‘ach”, “Bilga xoqon so‘zlari”, “Tabg‘achga yurish”, “Yasa” nomli qismlar bor. Uchinchi bo‘limda “Mangu bitiklar”, “Kul tigin bitigi”, “Bilga xoqon bitigi” bo‘limlari mavjud.

Asar sujeti bosh qahramon bo‘lmish Bilga xoqonning inisi Kul tigin o‘limidan qayg‘uga tushib, “Butun yer yuzi bir kishi o‘g‘lining qizil qoniga arzimaydi” jumlalari bilan boshlanadi. Bu so‘zlar Bilga xoqonning ham tug‘ishgan jigari, ukasidan ayrilganini anglatsa ham, bir tomondan, uning butun kuch-qudrati, quvonchi, hayotining mazmunidan, g‘alabalarining totli damlaridan, xullas, butun bor-yog‘idan ayrilganini angalatadi. Bu so‘zlar Bilga xoqonning endi umridagi qayg‘uli onlari boshlanganidan dalolat beradi. Yozuvchi bu o‘rinda sujetning “retrospektiv sujet” tipidan foydalanadi.. Chunonchi, tarixiy roman Kul tiginning bevaqt o‘limidagi qayg‘uli damlar bilan boshlanadi. So‘ng yozuvchi chekinish usulini qo‘llab, butun bir boshli turkiy xalqni qutqargan Bilga xoqon bilan bog‘liq tarixiy voqealarni badiiy talqin qiladi. Yana voqea kelib, Kul tiginning o‘limi bilan tutashtiriladi, so‘ng yechim beriladi. Shundan biz “Bilga xoqon” romani sujeti retrospektiv sujet tipida yaratilganini anglashimiz mumkin.

Asar tarixiy roman janriga oid bo‘lgani uchun, avval aytganimizdek, asar Bilga xoqon bitigi asosida yaratilgan. “Bitigda Bilga xoqonning davlatni adolatli boshqarganligi, ko‘pgina xalqlarni birlashtirgani, mamlakatni iqtisodiy jihatdan yuksaltirganini Yo‘llug tigin mahorat bilan tasvirlaydi. Xalq xoqonidan, vatanidan ayrilmasa, ezgulik ko‘rishi, baxtli, betashvish bo‘lishi juda ifodali qilib bayon etiladi. Ko‘ziga faqat mol-mulk ko‘rinadigan davlat boshliqlari gumrohdir, deb ta’kidlanadi mazkur bitigda. Bilga xoqon davlatning qudrati haqida so‘zlaydi. Bu davrda yo‘l qo‘yilgan xatolarni kelajak avlod takrorlamasligini maslahat beradi” [3;30-b.]. Bitig shunday boshlangan: “*Falakday tangri yaratgan Turk Bilga xoqon so‘zim: otam*

turk dono xoqoni taxtga o'tirganda, to'qquz o'g'uz qahramonlari, uning mashhur beklari va uning xalqi hurmat ko'rsatdilar. O'n yeti yoshimda tangut tarafga lashkar tortdim. Tangut xalqini yengdim, og'lini, bor narsasini, yilqisini, mol-mulikin oldim. O'n sakkiz yoshimda Olti chub sug'daq tomonga qo'shin tortdim, xalqini o'shanda tor-mor qildim [3;31-b.].

"*Bitikoshda, asosan, Bilga xoqonning taxtga o'tirishi, dushman qabilalarga lashkar tortib, ulami itoat ettirgani hikoya qilinadi. Jumladan, basmil, idiqut xalqi turkiy qavmlardan bo'lib, avval, Turk xoqonligi tasarrufida bo'lgan, ammo Turk xoqonligiga "karvon yubormagani" uchun, Bilga xoqon bu qabilalarga hujum qilib, ulami yana itoat ettirgan. Voqealami aniqlik bilan bayon qilish Bilga xoqon bitikoshining diqqatga sazovor tomonidir. Voqealar ishtirokchisi ham, hikoyachi ham Bilga xoqon. Shu bois bu bitiktosh Kul tigin bitiktoshidan farqli ravishda tarixiy-qahramonlik dostoniga emas, balki memuar janriga mansub, deb qarash lozim*" [4;54-b.] deb ma'lumot beradi N.Rahmonov. Quyida bitigdan parchalar keltiramiz:

"22 yoshimda Tabg'ach tomonga lashkar tortdim. Chacha sangunning sakkiz tumanlik (sakson ming) qo'shini bilan urushdim. Qo'shinini o'ldirdim.....

26 yoshimda Chik xalqi Qirg'iz bilan dushman bo'ldi. Kam daryosini kechib o'tib, Qirg'iz tomonga lashkar tortdim. O'rpanda jang qildim. Qo'shinini tor-mor qildim, az xalqini taslim etdim...

34 yoshimda O'g'uz qochib, Tabg'achga qo'shildi. Xafa bo'lib, lashkar tortdim, bolasini, bekasini o'shanda oldim...." U 19 yil shad bo'lib turdi, 19 yil xoqon bo'ldi. Bitikoshida Bilga haqdagi xronologiya shundan iborat. Bu sanalar Bilga xoqonning hayotidagi eng muhimlaridir" [3;32-b.].

Demak, mana shu bitigdagi parchalarning o'ziyoq Bilga xoqonning xoqon sifatidagi, el-ulus, avlodlari, vatani oldidagi juda katta burchni sharaf, shon, shijoat, turkona botirlik, mardlik, dadillik, oqilona siyosat, harbiy kuch-qudrat bilan bosib o'tganini anglatadi. Bu tarixiy xronologiya juda katta davrni qamrab olmasa-da, lekin turkiy millatlar taqdiridagi erk va ozodlik yo'lidagi kurashlarni aks ettiradi.Yozuvchi Isajon Sulton ana shu bitig asosida o'zining "Bilga xoqon" romani orqali tarixda yashab o'tgan qahramon ajdodlarimizning timsoli bo'lgan Bilga xoqonni mahorat bilan o'quvchiga tanishtirdi. Mana bu Bilga xoqon tilidan aytilgan so'zlar ham xoqonning asl fitratini anglatadi:

"*–Bilib qo'y, hoy budun! Kishi o'g'li o'lgani tug'ilarmish. Bir Tangri yashagay. Bu kun, yo'qsa erta, baribir, o'lajaksan! Shunga deyman: qo'rqma! Shoqoldayin ochlikdan o'lma! Sillang qurib cho'zilib yotma! O'lsang, boshingni tik tutib o'l! Qolsang, ko'ksingni kerib-kerib yasha! ...*

–Sen botir o'g'li eding, alp o'g'li eding. Yer bag'irlab yotib-yitib yuradigan emas eding! Boshing timtik, bo'yni bukilmas eding!

–Tangrim, bir sen mangusan! Ellarni, uluslarni beradigan sensan, oladigan-da sensan! Alplarni yaratadigan o'zingsan, qut yuboradigan, qutlug' qiladigan-da o'zingsan! Budunimni-ulusimni yorlaqa, boshini egdirma, dong'ini qo'riqla" [2;28-b.].

Isajon Sultonning mazkur romani sujeti genezisi nafaqat Bilga xoqon bitigi bilan, balki Tunyuquq, Kul tegin bitigtoshlari bilan ham bog'liq. Negaki, yozuvchi ushbu asarida yuqoridagi bitiklardan ham unumli foydalangan. Masalan, "Bilga xoqon" romanidagi "O'n o'qqa yurish" qismidagi voqea "Tunyuquq" bitigida keltirilgan.

"Ko'gman yo'li bitta ekan. Yo'lni qor bosgan deb eshitib, bu yo'l bilan yursa yaramaydi, dedim. Yerchi (yer biladigan kishi) surishtirdim. Cho'llik az qabilasidan bir yigitni topdim. Az yerini u yaxshi bilar ekan, bir manzili bor ekan. Ani daryosi bilan borilar ekan, o'sha yerda yotib, bir otlig' yo'l yurib boriladi, dedi. O'sha yo'l bilan yursa imkon bor deb o'yladim. Xoqonimga buni aytib, qo'shinni yo'lga soldim, otlantir! –deb buyruq berdim. Oq tarmal (hozirgi Xua Kem) daryosini kechib o'tib, qo'shinga lager qurishga ijozat berdim. Biroz dam olgach, otlanishga buyruq berdim, qorni yorib, yuqoriga otni yetaklab, o'zimiz yayov yurib, daraxtlarga tayanib qo'shinni chiqardim. Oldindagi yigitlar ilgarilab, o'simliklar bor dovondan oshdik. Undan qiynalib pastga tushdik. O'n kun davomida biz yonlama yo'llardan yurdik, to'siqni aylanib o'tdik. Yerchi ham yanglishib, bog'izlandi. Xoqon xafa bo'lib, otlarni choptiringlar, dedi" [3;20-b.].

Bilga xoqon bitiktoshi kabi To'nyuquq bitiktoshini ham bir badiiy asar sifatida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, "Bilga xoqon" romanini yozishda Isajon Sulton Bilga xoqon bitigi bilan birgalikda Tunyuquq, Kul tigin bitiktoshlaridagi tarixiy faktlardan unumli foydalangan. Bu esa, albatta, yozuvchini ortiqcha dabdababozlikdan, romantik kayfiyatga berilishdan saqlab, asardagi Bilga xoqon, Tunyuquq, Kul tigin obrazlarining real qiyofasini chizish imkonini bergan, albatta. Asar orqali biz Bilga xoqonning, umuman turkiy elatlarning bag'rikeng, shafqatli, qat'iyatli xalq ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Asar sujetiga asos bo'lgan bitigdagi Bilga xoqon hamda romandagi Bilga

xoqon obrazlari bir-birini to‘ldirgan holda qadimdagi mard, jasur, el-yurt uchun fidokor bo‘lgan, oliyjanob, dono turkiy ajdodlarimiz sifatida adabiyotimiz tarixida mangu yashashiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). A.Abdurahmonov. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. “Yangi asr avlodi”, 2005, 375-bet.
(2). I.Sulton. “Bilga xoqon” romani. “Factor Books” nashriyoti, 2022, 240 bet.
(3). N.Rahmonov. Qadimiy hikmatlar. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. T., 1987, 432-bet.
(4). N.Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi. “Sano-standart”, T., 2017, 556-bet.
(5). Q.Sodiqov. O‘zbek mumtoz adabiyoti (Qadimgi turkiy adabiyot). “Akademnashr’, Toshkent, 320-bet.

Dusanova Tozagul Rasulovna (O‘zJOKU dotsenti, f.f.f.d. PhD; tozagul.dusanova@gmail.com)

MANOQIBLAR YARATILISH TARIXI

Annotatsiya. *Maqolada Sharq adabiyotida manoqiblarning shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi. S.G‘aniyeva, B.Ahmedov, Q.Ergashev, Jürgen Paul va F.Olim tadqiqotlari umumlashtirilib, manoqiblarning biografik va tasavvufiy adabiyot bilan aloqadorligi yoritiladi. Maqomat, manoqib va holot tushunchalarining o‘zaro munosabati hamda janriy xususiyatlari izohlanadi. Alisher Navoiy ijodida holot-manoqib an’analarining davomiyligi, tarixiy shaxslar qiyofasi va davr adabiy-madaniy muhitining aks etishi tahlil qilinadi. Shuningdek, manoqibiy bayonning ma’rifiy-badiiy imkoniyatlari va Sharq mumtoz nasri taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *manoqib, maqomat, holot, tasavvufiy adabiyot, biografik nasr, Alisher Navoiy, janr taraqqiyoti.*

Дусанова Тозагул Расуловна (доцент УУЖМК, PhD по филологическим наукам; tozagul.dusanova@gmail.com)

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ МАНОКИБОВ

Аннотация. *В статье на основе научных источников анализируются становление и историческое развитие манокибов в восточной литературе. Обобщаются исследования С.Ганиевой, Б. Ахмедова, К.Эргашева, Юргена Пауля и Ф.Олим, освещается связь манокибов с биографической и суфийской литературой. Раскрываются взаимосвязь понятий «макомат», «манокиб» и «холот», а также их жанровые особенности. Анализируется преемственность традиции холот-манокибов в творчестве Алишера Навои, отражение образов исторических личностей и литературно-культурной среды эпохи. Кроме того, раскрываются просветительско-художественные возможности манокибного повествования и его значение в развитии классической восточной прозы.*

Ключевые слова: *манокиб, макомат, холот, суфийская литература, биографическая проза, Алишер Навои, развитие жанра.*

Dusanova Tozagul Rasulovna (Associate Professor at UJMCU, PhD in Philology; tozagul.dusanova@gmail.com)

THE HISTORY OF MANAQIB COMPOSITION

Annotation.*This article examines the emergence and historical development of manaqib in Eastern literature based on scholarly sources. It synthesizes the research of S.G‘aniyeva, B.Ahmedov, Q.Ergashev, Jürgen Paul, and F.Olim, highlighting the relationship between manaqib, biographical literature, and Sufi literary traditions. The article explores the interrelationship between the concepts of maqamat, manaqib, and holot, as well as their genre-specific features. It also analyzes the continuity of the holot-manaqib tradition in Alisher Navoi’s works, focusing on the portrayal of historical figures and the literary and cultural environment of his time. Furthermore, the article examines the educational and artistic potential of manaqib narratives and their significance in the development of classical Eastern prose.*

Keywords: *manaqib, maqamat, holot, Sufi literature, biographical prose, Alisher Navoi, genre development.*

Kirish. Sharq, xususan, o‘zbek adabiyotidagi nasriy asarlar janriga ko‘ra turfa xildir. Buni yuksak salohiyat sohibi Alisher Navoiy asarlari misolida kuzatsak, ayrim janrdagi asarlarning turkiy adabiyotdagi ilk namunalari hazrat qalamiga mansubligi ayonlashadi. Mutafakkirning “Vaqfiya” asarini akademik Botirxon Valixo‘jayev risola janriga mansubligini aytsa, matnshunos olim Alimulla Habibullayev so‘nggi asari “Mahbub ul-qulub” janrini pandnoma deb izohlaydi.

Alisher Navoiy uch qadrdon do‘sti va ustozining yuksak axloqi va insoniy fazilatlariga bag‘ishlab uch yodnoma “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlarini yaratdi.